

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi, 3-bosqich, 303-guruh talabasi
Uktamov Nodirning**

KURS ISHI

MAVZU: o'zbekiston taraqqiyoti vamafkuraviy muammolar.

Ilmiy rahbar:

Mirzahmedov.H

Namangan-2014-yil

MAVZU: O'ZBEKISTON TARAQQIYOTI VA MAFKURAVIY MUAMMOLAR

REJA:

KIRISH

I BOB. MUSTAQILLIK VA O'ZBEK MODEL

1.1§O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rni

1.2§.O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li

II BOB. BUGUNGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI

2.1§. Hozirgi davrda inson qalbi va ongi uchun kurash

2.2§. Globallashuv sharoitida mafkura va g'oyalar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

KIRISH

Mustaqillik — davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo o'zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o'zaro tinchtotuv yashashning prinsiplaridan biridir. U BMT Ustavi va xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalart mustahkamlab qo'yilgan. Unga rioya qilish hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy vazifasidir. Davlatning suverenitetı uning boshqa davlatlar b-n munosabatlaridagi mustakilligini ham bildiradi. Mustaqillik. Davlatning faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy mustaqilligini ham anglatadi.

Mavzuning dolzarligi. O'zbek modelining asosiy tamoyillari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan. U jamiyatimiz hayotini har tomonlama isloh etish va bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, adolatli demokratik davlat qurishning strategik yo'lidir. Mamlakatimiz o'zining ana shu maqsadlariga erishish uchun taraqqiyotning o'ziga xos yo'lini tanladi. Milliy istiqlol g'oyasi ana shu yo'ldan borayotgan xalqimizni pirovard maqsadlarga yetaklaydi, taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishga yordam beradi. Taraqqiyot modeli deb, muayyan davlat tomonidan bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi ijtimoiy tuzumga o'tish yoki biron-bir jamiyatdagi umrini o'tab bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish borasida tanlab olingan rivojlanish yo'liga aytiladi G'oya anglangan maqsad va haqiqatni o'zida aks ettiruvchi fikr bo'lsa, mafkura ana shu maqsad va haqiqatning anglangan shakliga mos bo'lgan g'oyalar, fikrlar va ularni amalga oshirish usul va uslublari tizimidir. Shuning uchun bu tizim asosida mafkura tarkibidagi bosh va asosiy g'oyalarni amalga oshirish jarayonida tug'iladigan savollarga javob berish mumkin bo'ladi. Muayyan g'oya muayyan mafkuraga asos bo'lib, uni shakllantirishi mumkin, mafkura esa o'z tizimi tayanadigan maqsad va g'oyalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Muayyan xalqning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'llari va vositalari tizimi uning milliy mafkurasini asosini tashkil etadi. Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraning xalqni xalq, millatni millat etish borasidagi ahamiyatini ta'kidlab, shunday yozadi: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda, shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan

va uning dunyodagi o‘rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘lishga qodir g‘oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».

Mavzuning maqsad va vazifalari. Hozirgi davrda g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashib, yer yuzidagi barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olib, quyidagi xususiyatlarini namoyon qilmoqda, ya'ni: *Birinchidan*, xalqaro miqyosda **integratsiyalashish** ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, milliy chegaralarni shartli qilib qo‘ymoqda. *Ikkinchidan*, xozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning **globallashish** xususiyati ob'ektiv jarayon bo‘lib, jamiyat hayotining hamma sohalariga istisnosiz ta'sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi. *Uchinchidan*, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari milliy rivojlanishning modellarida **differetsiyalashish** jarayonlarini namoyon qilib, insoniyat taraqqiyotida umumiy qonuniyatlarni milliy darajada konkretlashtirmoqda. *To‘rtinchidan*, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning texnik-texnologik, intellektual asoslari, aloqa kommunikatsiya vositalari rivojlanishi natijasida g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning **intensivlashuvi** bilan xarakterlanadi.

Ezgulik, oqibat, ilm-ma’rifat, insoniylik kabi umuminsoniy g‘oyalarga asoslangan islom dini o‘z tarixiy yo‘lida yirik sivilizatsiyalarni yaratdi, dunyo ilm-fanini bir necha asrga ilgarilatgan allomalarning yaralishiga zamin bo‘ldi. Dunyoning teng yarmini ishg‘ol qilgan Amir Temur saltanati, Hindistonda ingliz mustamlakasiga qadar hukm surgan boburiylar imperiyasi, diyorimizdagi Samarqand hamda Buxoro, Xiva va Urganch kabi ilm-fan va madaniyat keng rivojlangan shaharlar fikrimizning dalilidir. Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Boborahim Mashrab, Imom Burhoniddin Marg‘inoniy kabi yuzlab ma’rifat quyoshlari ham islomning hayotbaxsh g‘oyalaridan ilhom olganliklarini inkor qilish mumkin emas.

Qaysi xalqning milliy mafkurasi bir-birini boyitib boruvchi ilmiy va falsafiy, dunyoviy va diniy, azaliy va zamonaviy manbalarga asoslansa, u taraqqiyot bobida ilgarilab boraveradi. Ilmiy kashfiyotlar mafkura rivojiga katta ta’sir o‘tkazadi. Bugungi kunda zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika sohasidagi olamshumul yangiliklar, insonning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk

kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirib yuborayotgani shundan dalolat beradi. Kompyuterlar, uyali telefonlar, internet tizimi ham ana shunga xizmat qiladi. Lekin ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak. Aks holda, ilm-fan yutuqlarini noto'g'ri qo'llash oqibatida Xirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, bugungi ommaviy qirg'in qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzulga o'xshash umumbashariy muammolar yanada kuchayib borishi mumkin.

Mafkuraviy tajovuzlarning hozirgi kundagi miqyosi va keskinligi shu darajada ortib ketdiki, uni bir davlat miqyosida, alohida olingan bir mamlakat darajasida hal etish amalda mumkin bo'lmay qoldi. Ayniqsa, buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish mafkuraviy tajovuzning asosini tashkil etmoqda. Bunday mafkuraviy tajovuzlarning maqsadi, aholining ma'lum qatlamlarida, ayniqsa yoshlar o'rtasida parokandalikni keltirib chiqarish, ularda rasmiy davlat va konstitutsion tuzumga nisbatan norozilik kayfiyatini o'yg'otishdan iboratdir.

Mazkur kurs ishimiz Kirish, 2 ta bob, 4 ta paragraf va Xulosa qismlaridan iborat bo'lib, unda biz mavzuga atrolicha to'xtalib o'tganmiz. Mavzuni yoritish davomida atamalar, yangi ilmiy terminlarga ham e'tibor qaratilgan. Qolaversa, hozirgi globallashayotgan davrda amal qilinishi va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan tushunchalar ham o'rganilgan.

I BOB. MUSTAQILLIK VA TARAQQIYOT.

1.1§. 1.1§O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi o'rni

Mustaqillik — davlatning ichki va tashqi ishlarda boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo o'zaro munosabatlarda yetakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish o'zaro tinchtotuv yashashning prinsiplaridan biridir. U BMT Ustavi va xalqaro shartnomalar va deklaratsiyalart mustahkamlab qo'yilgan. Unga rioya qilish hozirgi zamon xalqaro huquqining asosiy vazifasidir. Davlatning suverenitetı uning boshqa davlatlar b-n munosabatlaridagi mustakilligini ham bildiradi. Mustaqillik. Davlatning faqat siyosiy emas, balki iqtisodiy mustaqilligini ham anglatadi.

Mustaqillik insoniyatning azaldan orzu-umidi bo'lib kelgan. Ana shu g'oya asosida AQSh, Fransiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida inqiloblar yuz berdi. 20-a.ning 90-y.lariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir necha mu-staqil respublika, Chexoslavakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo'linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan hududda sotsialistik tuzum barham topdi. Ayni chog'da, sobiq SSSR parchalanib uning o'rnida mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakat tashkil topdi. Boshqacha qilib aytganda, bu davrga kelib Mustaqillika erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayonga aylandi. O'zbekistonning Mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi¹.

Mustaqillik imkoniyatlarini oldindan payqagan, mamlakat ijtimoiysiyosiy jarayonlarining borishini to'g'ri kuzatib, to'g'ri baholay bilgan O'zbekiston ittifokdoshlari orasida birinchilardan bo'lib, o'z mustaqilligini e'lon qildi: 1991 y. 31 avg. kuni kabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi

¹ Karimov I.A.. «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin». «Tafakkur» jurnali, 1998-y. 2-son.

to'g'risidagi Bayonot O'zbekiston hukumatining siyosiy yo'lini to'la qonunlashtirib berdi. 1991 y.ning avg.ida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi va ana shu qonun doirasida Uzbekiston Respublikasi Oliy Kengashining bundan keyin Uzbekiston SSRni Uzbekiston Respublikasi deb atash, 1-sentyabrni Mustakillik kuni deb e'lon qilish, Uzbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ittifoqning va uning tarkibiga kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularni respublikaning davlat mustaqilligi e'lon qilingan hujjatni tan olishga da'vat etish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu O'zbekiston mustaqilligining dastlabki huquqiy poydevori edi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun 17 moddadan iborat bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab berdi. Qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'z tarkibidagi Qoraqal-pog'iston Respublikasi b-n birga mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilindi. O'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega bo'ldi, xalq davlat hokimiyatining birdanbir sohibi, egasi, xo'jayini bo'lib qoldi. O'zbekiston mustaqilligi respublikada adolatli, demokratik, insonparvar jamiyat qurish uchun yo'l ochib berdi, o'z milliy davlatchiligini barpo qilishga imkoniyat yaratdi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqaro miq-yosda o'zini tanitish, ayni chog'da xalqaro huquq me'yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar b-n teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jahon xaritasida O'zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Iqtisodiyotda tub o'zgarishlar qilish uchun imkoniyat yaratildi. Ya'ni jahon amaliyoti isbotlagan bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun sharoit barpo etildi. Mulkka munosabat tubdan o'zgarib, jamiyatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun imkon ochildi.

Mustaqillik xalqning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurt tarixi, qadimiy madaniyat tiklana boshladi. Xalqining azaliy urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlari unga qaytarib berildi. Dinga munosabat mutlaqo ijobiy tomonga o'zgardi. Shunday qilib, qo'lga kiritilgan M. o'zbek xalqi tarixida tamoman yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi. Xalq

kelajakka ishonch b-n qaray boshladi. O‘z yurtining to‘la xo‘jay-ini ekanligini, o‘z takdirini o‘zi belgilash imkoniyatini qo‘lga kiritganligini his qila boshladi.

Har bir mustaqil millat o‘z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarning tarixiy tajribasi va jahondagi ilg‘or tamoyillar uyg‘unligi asosiga qursa, yanglishmaydi. Bunday mustaqil rivojlanish yo‘li istiqloolning dastlabki yillaridan e‘tiboran O‘zbekiston Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqildi va o‘tgan yillar mobaynida izchil amalga oshirib kelinmoqda. Jahon tan olgan buyuk orif, shoir va mutafakkir Jaloliddin Rumiyning 25700 baytdan iborat “Masnaviyi ma'naviy” asari ma'naviyatning cho‘ng qomusi sifatida shuhrat topgan. Chunki bu kitobda insonning Borliq haqiqatiga munosabati o‘zining butun qirralari bilan aks ettirilgan. G‘arb olamida falsafa qanchalik mashhur bo‘lsa, islom dunyosida ma'naviyatga shunday katta e'tibor berib kelingan. Bahslashishga juda o‘ch bo‘lgan bir shoir va faylasuf do‘stimiz bor. Shu bir kuni o‘zidan-o‘zi “Ma'naviyat fan emas” deb da'vo qilib qoldi. “To‘g‘ri”, dedik biz, “ma'naviyat fan emas, u inson va jamiyat hayotining iqtisod va siyosat singari mustaqil va muhim bir sohasi, aslida falsafa ham fan emas, u ham inson ma'naviy faoliyatining bir tarmog‘i”. Keyinchalik qarasak, ba'zi shu sohaga oid kitoblarda “Ma'naviyatning predmeti, tushunchalari...” degan jumlarlar sarlavhaga chiqarilgan joylari ham bor ekan. Ilmda shunday holatlar uchraydiki, fan mavzusi bilan nomi bir xil bo‘lib qoladi. Masalan, biz falsafani o‘rganadigan fanni ham “Falsafa” deymiz, tarixni o‘rganadigan fanni “tarixshunoslik” deb o‘tirmay, oddiy qilib “Tarix” deymiz, Axloqshunoslik, Iqtisod nazariyasi, Adabiyotshunoslik fanlari ham ba'zan xalq tilida qisqa qilib “Axloq”, “Iqtisod”, “Adabiyot” deb ishlatiladi. “Fizika”, “Etika” fanlarining nomi ham aslida ushbu fan mavzulari nomi bilan atalgan. Ma'naviyat sohasiga oid muammolar shu paytgacha jahon ilmida umumiy bir tarzda deyarli maxsus o‘rganilmagan, balki Axloqshunoslik (Etika), Madaniyatshunoslik (Kulturologiya), Falsafa, Ilohiyot (Teologiya), Ruhshunoslik (Psixologiya), Tasavvuf ilmi, Tarbiyashunoslik (Pedagogika), Nafosatshunoslik (Estetika), Adabiyotshunoslik, Insonshunoslik (Antropologiya) kabi fanlar tarkibida turlicha darajada o‘rganib kelingan edi. “Ma'naviyat” tushunchasi rasmiy doiralarda deyarli ishlatilmas, faqat ba'zi hollarda “Madaniyatshunoslik” fani doirasida rus tilidagi “duxovnaya kultura” tushunchasi “ma'naviy madaniyat” birikmasi bilan

tarjima qilib ishlatilardi. Mustaqillik davrida O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimovning bevosita tashabbusi bilan barcha darajadagi ta'lim tizimida "Ma'naviyat asoslari" alohida va maxsus fan sifatida o'qitila boshlandi. Keyinchalik shu sohada kadr tayyorlash masalasi yo'lga qo'yilishi munosabati bilan oxirgi yillarda bu fan ham tarmoqlanib, "Ma'naviyatning rivojlanish tarixi" "Ma'naviyatning diniy asoslari", "Axloqning ma'naviy asoslari", "San'atning ma'naviy asoslari", "Oila ma'naviyati" "Milliy mustaqillik va ma'naviyat" kabi yangi-yangi kurslar o'quv rejaga kiritilmoqda.

Yuqorida aytib o'tilganidek, shu kungacha jahon ilmida ma'naviyatga madaniyatning tarkibiy jihati sifatida qaralgan bo'lsa, bugunga kelib bu hodisaga yangicha qarash shakllanib kelmoqda. Bu qarashga binoan ma'naviyat moddiy ehtiyojlar hosilasi sifatida emas, balki inson va jamiyat hayotining asosini tashkil etuvchi mustaqil uch asosiy yo'nalish(iqtisod, siyosat, ma'naviyat)ning biri sifatida olib qaralmoqda. Shunday yondoshuvdan kelib chiqqanimizda, aksincha, "madaniyat" inson ma'naviy faoliyatining hosilasi, boshqa so'z bilan aytganda, inson ma'naviyatining moddiy voqyelikdagi izlari sifatida namoyon bo'ladi. "Ma'naviyat asoslari" fani dasturiy tizimini belgilashda ushbu yangicha yondoshuvga tayanildi.

1999 yil 14 aprel kuni ochilgan Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" deb nomlangan ma'ruzasida Prezident I.A.Karimov mamlakatimizni yangi asr arafasi va uning dastlabki yillaridagi rivojlanish strategiyasini belgilab berar ekan, "jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish" ni ustuvor yo'nalishlardan ekanligini alohida ta'kidlab, ma'naviyatga mukammal ta'rif berish bilan birga bu sohada bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim masalani ham aniq ko'rsatib o'tgan edi:

"Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan

barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak".² Shu ma'noda har bir inson ruhida Borliq haqiqati bilan uyg'unlik hosil etishga har taraflama ko'maklashish "Ma'naviyat asoslari" fanining asosiy maqsadi bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2008 yida bosilib chiqqan "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobida bu masalaga yana alohida urg'u berib shunday yozadi:

"Biz xalqimizning dunyoda hyech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hyech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin."

Ma'naviyat ko'ngil ko'zgusidan taralgan nur, u inson qalbida yashiringan. Demak, "Ma'naviyat asoslari" fanining asosiy vazifasi ham ruh tarbiyasi, ko'ngil ko'zgusiga sayqal berishda har bir shaxsga ko'maklashuvdir. "Ma'naviyat asoslari" fani insonning Oliy haqiqatga nisbatini o'rganadi. Buning uchun ma'naviyat muallimi, faylasufdan farqli o'laroq, o'z mulohazalarini sof mantiqiy mulohazalar tarzida emas, balki ma'naviy merosga, bu sohada ajdodlarimiz erishgan beqiyos yutuqlarga asoslangan holda olib boradi, ya'ni bu fan, ma'lum ma'noda, tarixiy-nazariy fandır. Uning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yaxlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham undagi nazariy xulosalarning manbai bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda yana bir jihatni ta'kidlab o'tish lozimki, jahon ilmida ma'naviyatga oid masalalar maxsus fan sifatida izchil o'rganilmaganligi tufayli bugungi kunda ma'naviyatning umumbashariy muammolarini keng miqyosda o'rganish uchun tadqiqiy asos yetarli emas. Shu sababli bu sohaning nazariy asoslarini ishlab chiqishda biz asosan o'z ajdodlarimiz yaratgan nazariy merosga

² Karimov I. A. Jamiyat mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. -T.:O'zbekiston, 1999 y, -b- 85.

tayanishga majburmiz. Qolaversa, hyech bir xalq o'zga xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, falsafiy tizimlari, mafkura va dunyoqarashi asosida yashamaydi, ulardan ko'r-ko'rona ko'chirma qilib baraka topmaydi. "Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi"³.

Shunday ekan, "Ma'naviyat asoslari" fani hozirgi kunda asosan milliy ma'naviyatimiz tarixiy tarjibasiga tayangan holda ishlab chiqilayotgani bejiz emas. Shu bilan birga milliy ma'naviyatimiz hyechqachon umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lmaganini va uning nazariy asoslari ham umumbashariyat manfaatlarini unutmagan holda shakllantirilishi lozimligini unutmasligimiz lozim. Bu masalalar har biri ushbu kitob sahifalarida yana batafsil yoritiladi.

Milliy ma'naviyat o'tmish emas, u ham o'tmish, ham bugun, ham kelajakni o'zida mujassam etadi. Buning uchun uning manbai sifatida biz faqat ajdodlarimizning yozma merosiga tayanib qolmay, balki ushbu merosdan anglaganimizni bir paytning o'zida xalqning tirik xotirasi bilan, uning ma'naviy qadriyatlari bilan qiyoslab, ularning uyg'un jihatlariga e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Shu bilan birga tarix tajribasi va sinovlaridan o'tgan qiymatlarni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, hozir va kelajak uchun ahamiyati nuqtai nazaridan baholash ko'zda tutiladi. Xullas, milliy ma'naviyat nazariyasi voqyelikni faqat ong bilan, aql bilan tushunib yetish tajribasiga emas, Haqiqatni anglab yetishning barcha vositalari, e'tiqod, ibrat, taqvo, riyozat, irfon, mehr, did-farosat, amaliy yaratuvchilik faoliyatining barcha turlariga e'tibor qaratib, millatning barcha amaliy va nazariy tajribasini o'rganishga intiladi, ushbu tajribani ongli o'zlashtirishda har bir insonga ko'maklashadi, maqsad - bitta, ko'ngil ko'zgusiga sayqal berishda har bir shaxsga iloji boricha yordam berish.

Inson ruhida tabiatga nisbatan, o'zgalarga nisbatan mehr va adolat tuyg'ulari shakllanishiga uning moddiyligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan nafs ammorasi, ya'ni g'aflat, shahvat va kibr kabi qusurlar doimo halaqit berib turadi, shuning uchun har

³ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat", 2008 y. 30-b.

bir kishi hayotga, o'z faoliyatiga sergak boqishi lozim. Ushbu illatlar har bir inson fitrati bilan bog'liq bo'lgani tufayli inson moddiy mavjudot sifatida tirik ekan, ulardan butkul qutulish umidi xom xayol, faqat ularni muvozanatlovchi kuch kerak. Ayni shu kuch - ma'naviyatdir.

Ma'naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa, barcha ulug'vor rejalarni amalga oshirish uchun voqye' imkon vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg'or tamoyillari darajasida yondoshilsa, milliy ta'limning eng muhim vazifasi ham ana shu imkonni shakllantirish, ya'ni yosh avlod ruhida yaratuvchilik qudratini uyg'otib, uni bashariyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan o'zanlar sari yo'naltira bilish bilan belgilanadi.

Ma'naviyat poydevori baquvvat bo'lmasa, unday insonning butun g'ayrati, jo'shqin faoliyati, oxir natijada, xalq va vatan uchun, bashariyat kelajagi uchun, qolaversa, uning o'z shaxsi uchun qanday xulosaga olib keladi, aytish qiyin. Imom Fazzoliy o'z davrida bekorga aytmaganlar: "Shuni bilsinlarki, odamzodni azbaroyi o'yin uchun yaratmamlar, aning amali ulug'dir va uning uchun buyuk xatar bordir". Ana shu "ulug' amal" va "buyuk xatar" oralig'ida yo'nalishni to'g'ri belgilab olmoq ko'p jihatdan ma'naviy ogohlik va kamolotga bog'liq. "Milliy ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida asosiy e'tibor ushbu "ma'naviy ogohlik" masalasiga qaratiladi, shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda, imkon darajasida yosh avlodni milliy ma'naviyatimizning asosiy tamoyillari, uning ming yillik ildizlari, takomil bosqichlari, bosh qadriyatlari va tayanch nuqtalari, kelib chiqish manbalaridan ogoh etiladi.

1.2§.O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li

O'zbek modelining asosiy tamoyillari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan mustaqillikning dastlabki yillarida ishlab chiqilgan. U jamiyatimiz hayotini har tomonlama isloh etish va bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin, adolatli demokratik davlat qurishning strategik yo'lidir. Mamlakatimiz o'zining ana shu maqsadlariga erishish uchun taraqqiyotning o'ziga xos yo'lini tanladi. Milliy istiqlool g'oyasi ana shu yo'ldan borayotgan xalqimizni pirovard maqsadlarga yetaklaydi, taraqqiyotning o'zbek modelini amalga oshirishga yordam beradi.

Taraqqiyot modeli deb, muayyan davlat tomonidan bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchi ijtimoiy tuzumga o'tish yoki biron-bir jamiyatdagi umrini o'tab bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish borasida tanlab olingan rivojlanish yo'liga aytiladi⁴.

O'zbekiston tanlab olgan taraqqiyot yo'li bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tishni ta'minlab beradigan taraqqiyot modeliga misol bo'la oladi. Dunyoda bu borada ancha tajriba to'plangan. Masalan, yaponlarning Ikkinchi jahon urushidan keyingi taraqqiyot yo'li davlat tuzumi – monarxiyani saqlab qolgan holda, jamiyatdagi hukmron munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish modeliga misol bo'la oladi.

O'zbekistonning sobiq ma'muriy buyruqbozlik tuzumidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan erkin, demokratik jamiyatga o'tishining o'ziga xos va mos yo'li – jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning asosiy mazmuni jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki bosqichma-bosqich, ya'ni tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi. O'zbek modeli o'zining nazariy va amaliy jihatlariga ega. U nazariya, ya'ni ta'limot sifatida mamlakatimizning salohiyati va keng imkoniyatlaridan, tabiiy boyliklari, aholisining ongi, bilimi va yaratuvchilik mahoratidan kelib chiqqan holda rivojlantirish tamoyillarini belgilab beradi. Oddiy til bilan aytganda, o'zbek modeli nazariy jihatdan bizning o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'limizni asoslaydi.

⁴ Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. –T.: «O'zbekiston», 1998 y, 5-b.

Amaliy faoliyat dasturi sifatida esa bu model islohotlarning huquqiy negizini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan aniq siyosatni bugungi sivilizatsiya sharoitida qanday yuritish yo‘l yo‘riqlarini tavsiya etadi. Uning amaliy jihati boshqaruv, tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizmini o‘zida aks ettiradigan va ularning ijrosini ta’minlaydigan farmonlar, qarorlar, davlat dasturlarini qabul qilishni hamda investitsiya, soliq, moliya-kredit, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Xo‘sh, o‘zbek modelining afzalliklari va asosiy ustuvor xususiyatlari nimalardan iborat?

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, nafaqat o‘zining iqtisodiy taraqqiyot tamoyillarini, balki milliy davlatchilik asoslarini tiklash modelini ham ishlab chiqishi zarur edi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar, xalqning o‘zligi va g‘ururini qayta tiklash, rivojlantirishni ham talab qiladi. Bularning barchasi jamiyatning ijtimoiy-sinfiy tuzilmasini tubdan yangilash va mustaqillik g‘oyalarini amalga oshirish uchun mutlaqo yangicha fikrlab, yangicha ish yuritadigan kadrlarni tarbiyalash zaruratini yuzaga keltirdi.

Germaniya, Shvetsiya, Janubiy Koreya, Fransiya, Xitoy, yuqorida tilga olingan Yaponiya kabi mamlakatlarning taraqqiyot modellari ko‘proq iqtisodiy modellar edi. Ular siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotni tubdan yangilashni nazarda tutgan emas. Ushbu mamlakatlarning birortasida iqtisodiy islohotlar davrida milliy davlatchilik, madaniy meros va ona tilini tiklash singari masalalar dolzarb bo‘lmagan (faqat Janubiy Koreyada davlat qurilishi muhim ahamiyat kasb etgan).

O‘zbek modeli esa yuqorida aytib o‘tganimizdek, jamiyatning barcha sohalarini birdek isloh etishga qaratilgan. U iqtisodiy munosabatlarni yangicha asosda rivojlantirish bilan birga, davlat qurilishi, jamiyatni demokratlashtirish, mulkdorlar sinfi va o‘rta biznesni shakllantirish kabi davlatchilik negizini tashkil etadigan masalalarni hal etishni nazarda tutadi. Bularning barchasi o‘zbek modelining o‘ziga xos ustuvor xususiyatlaridir. Bu modelni ishlab chiqishda taraqqiy topgan mamlakatlarning bozor munosabatlariga o‘tish tajribasi, mustaqillik uchun kurash yillaridagi tarixiy sinov va saboqlar, xalqimizning o‘ziga xos turmush tarzi va tafakkuri – barcha-barchasi hisobga olindi. Jamiyatni isloh etishning chuqur ilmiy asoslangan quyidagi besh tamoyili o‘zbek modelining asosida turadi. Birinchi

tamoyil: Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, ular biror mafkuraga bo'ysundirilishi ham mumkin emas. Ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlar mafkuradan xoli bo'lishi lozim. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi va mafkuradan xoliligi o'zbek modelining asosiy tamoyilidir. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning mazmun-mohiyatini aks ettiribgina qolmay, balki yurtimiz iqtisodiy hayotining yangiliklarga, ilg'or tajribalar va oqilona tashabbuslarga ochiqligini ham ko'rsatadi. Mazkur tamoyil iqtisodiy rivojlanishda ma'naviyatning ahamiyati nechog'liq muhim ekanini ham nazarda tutadi.

Ikkinchi tamoyil: Davlat – bosh islohotchi. U islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, yangilanish va o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan amalga oshirishi lozim. Mustabid tuzum asoratlaridan xalos bo'lish jarayonida o'zini o'zi tartibga soladigan yetuk rivojlangan iqtisodiy mexanizm birdaniga vujudga kelib qolmaydi. Shu boisdan ma'muriy buyruqbozlikka, markazlashgan iqtisodiyotga asoslangan tuzum qoldiqlarini tugatish, bu yo'ldagi turli ziddiyat va qarshiliklarni yengib o'tish, yangi munosabatlarni qaror toptirish uchun o'tish davriga xos siyosat olib borilishi kerak.

Boshqacha aytganda, o'tish davri sharoitida iqtisodiy islohotlarni o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. Islom Karimov o'zbek modelining mazkur tamoyilini ilmiy asoslab berar ekan, quyidagilarni ta'kidlaydi: «O'tish davri davlat xalq xo'jaligining, ayniqsa, uning asosini, tizimini belgilaydigan tarmoqlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, narx-navolarni tartibga solib turishi, shuningdek, bevosita yordam berishda imtiyozlar yaratishi, bevosita yordam ko'rsatish yo'li bilan ana shu tarmoqlarga madad berishi lozim».

Bu so'zlar davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifasi nimadan iborat ekanini asoslab beradi va ayni paytda turli ijtimoiy guruhlarining, nodavlat va jamoatchilik tashkilotlarining, alohida shaxslarning islohotchilik tashabbuslari va faoliyatlari cheklanmasligini, aksincha, davlat ularga yordam berishini bildiradi.

Uchinchi tamoyil: Jamiyat hayotining barcha sohalarida qonunning ustuvorligi. Bu tamoyil demokratik yo'l bilan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og'ishmay rioya etishini nazarda tutadi. U

quyidagi uch yoʻnalishda oʻz aksini topgan. Birinchidan, mazkur tamoyil turli mulk shakllarining huquqiy asosda rivojlanishini taʼminlaydi. Mulkdorlar va xoʻjalik yurituvchi shaxslar oʻrtasidagi munosabatlar huquqiy meʼyorlar yordamida tartibga solinadi. Oʻzboshimchalik yoki turli iqtisodiy zoʻravonliklarga yoʻl qoʻyilmaydi.

Ikkinchidan, jamiyatda demokratik jarayonlar rivojlanib boradi, aholining siyosiy madaniyati va faolligi oshadi. Fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang-barangligi uchun huquqiy kafolatlar paydo boʻladi. Inson huquqlari taʼminlanadi. Noqonuniy imtiyozlarga yoki aksincha, kamsitishlarga chek qoʻyiladi.

Uchinchidan, aholida shaxsning, barcha ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlari toʻliqroq hisobga olinadi va ularning yaratuvchilik imkoniyatlari, ijodiy salohiyati samaraliroq roʻyobga chiqadi. Jamoat tashkilotlarining oʻrni va ahamiyati yil sayin ortib boradi. Fuqarolik jamiyati asoslari shakllanadi. Demak, qonunning ustuvorligi tamoyili – Oʻzbekistonda ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat yangilanishi, inson shaxsining yuksalishi uchun xizmat qiladi. Taraqqiyotning oʻzbek modeli jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki evolutsion-tadrijiy ravishda isloh etishdir.

Bozor munosabatlariga oʻtishning besh tamoyili:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, mafkuradan xoliligi
2. Davlat – bosh islohotchi
3. Qonunning ustuvorligi
4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich oʻtish

Oʻzbek modelining mazkur tamoyili avvalgi tamoyil bilan chambarchas bogʻliq. Zero, davlat bosh islohotchi sifatida ijtimoiy barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotning asosiy kafili boʻladi. Qonun ustuvorligi jamiyat hayotida birdaniga toʻliq qaror topib qolmaydi. U nisbatan uzoq muddat talab qiladigan, bosqichma bosqich va doimiy rivojlanib boradigan jarayon. Uning toʻliq qaror topishi uchun oʻzaro mushtarak boʻlgan quyidagi uch omil muhim ahamiyat kasb etadi:

Toʻrtinchi tamoyil: Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish. Bunda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholini, ayniqsa, kam taʼminlangan oilalarni, bolalar va keksalarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan tegishli choratadbirlar koʻrish nazarda tutiladi.

Kuchli ijtimoiy siyosatning tarkibiy qism va yo‘nalishlari ko‘p. Ular orasida ijtimoiy ta‘minot, yangi ish o‘rinlarini yaratish, sog‘liqni saqlash, xalq ta‘limi, madaniyat, sport va jismoniy tarbiya sohalari faoliyatini mablag‘ bilan ta‘minlash va isloh qilish qanchalik muhim o‘rin tutsa, jinoyatchilikka qarshi kurashish, osoyishtalik va barqarorlikni ta‘minlash kabi masalalar ham shunchalik dolzarbdir.

Kuchli ijtimoiy siyosat olib borish va aholining turli qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish o‘zbek modelining insonparvarlik mohiyatini belgilovchi tamoyillardan biridir.

Beshinchi tamoyil: Bozor iqtisodiyotiga tadrijiy asosda, puxta o‘ylab, bosqichma bosqich o‘tish. Bu jarayon islohotlarning huquqiy asoslari va kafolatlarini vujudga keltirishni, aholini ijtimoiy himoyalash va ularda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bilan birga olib borishni nazarda tutadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, yangi jamiyat barpo etish uzoq davom etadigan tarixiy jarayon bo‘lib, u faqat tegishli mavjud ishlab chiqarish va faoliyat tuzilmalari va huquqiy asosni yaratishnigina emas, shu bilan birga, qadriyatlar tizimida chuqur o‘zgarishlarni, xo‘jalik faoliyatini va amaliy munosabatlarni amalga oshirishni ham ko‘zda tutadi. O‘zbekistonda ayni shunday yo‘l tutildi. Bunday siyosat mablag‘lardan samarali foydalanish imkonini bermogda, odamlarning safarbarligini oshirmogda, ijtimoiy larzalarning oldini olmogda, mulkchilik shakllarini bosqichma-bosqich rivojlantirmogda⁵.

Yuqorida sanab o‘tilgan tamoyillar mamlakat ichki hayotini belgilaydi. Uning tashqi siyosati, xalqaro nufuzi ham ana shu tamoyillarga tayanadi. Mazkur chizmada ko‘rsatilgan jihatlar o‘zbek modelining tashqi iqtisodiy, siyosiy aloqalarda, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o‘rni, boshqa mamlakatlar bilan o‘zaro aloqasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Milliy istiqlol mafkurasining bu sohadagi vazifasi O‘zbekistonning xalqaro nufuzi yanada ortishida ana shu tamoyillar ham nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek modelining yana bir ustuvor xususiyati shundan iboratki, uning amalga oshirilishi mamlakatimiz ichida ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, eng muhimi, bozor munosabatlarining izchil joriy etilishini ta‘minlamogda. Taraqqiyotning o‘zbek modeli xalqimizning milliy davlatchilik an‘analari, qadriyatlari va o‘ziga xos ichki

¹ Shayxova X., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. –T.:O‘zbekiston, 1992 y. b-11.

dunyosiga tayangan, ayni vaqtda, dunyo tajribasining ilg'or yutuqlariga asoslanganligi tufayli xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda.

Prezident Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida mustaqillik yillaridagi ulug'vor ishlar haqida fikr yuritir ekan, «... biz bugungi kunda butun dunyoda o'zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modelini ishlab chiqdik. Bu modelning asosiy tamoyillari — ya'ni, iqtisodning siyosatdan xoli ekani, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni tadrijiy asosda bosqichma-bosqich amalga oshirish prinsiplari barchamizga yaxshi ayon», deb ta'kidlaydi. Xullas, milliy istiqlol g'oyasi mamlakatimizda barpo etilayotgan fuqarolik jamiyati va taraqqiyotning o'zbek modeli bilan uzviy bog'liqdir. Mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish jarayonida bu g'oya xalqimizni shu maqsadlar yo'lida uyushtiruvchi ulkan omil bo'lib qolaveradi. Milliy qadriyatlarga baho berilar ekan, ularning milliy g'oyaga nechog'liq mos ekani nazarda tutiladi. Lekin bunda faqat alohida bir inson yoki muayyan ijtimoiy guruh manfaati emas, balki butun insonparvar jamiyat, barcha o'zbekistonliklar manfaati e'tiborga olinadi.

Yangi jamiyat barpo etishda barchani ma'naviy yangilanish va islohotlar jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, ularning kuch va salohiyatini ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu maqsadlar sari yo'naltirish muhim vazifadir. Chunki, bu ma'naviyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanish, ijtimoiy munosabatlarni insoniylik g'oyalari asosida rivojlantirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Bunda turlicha fikrdagi ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o'ziga xos orzu-intilishlarini uyg'unlashtiruvchi g'oyalarga erishish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi oliyjanob orzu-intilishlarni barcha uchun muqaddas maqsadga aylantirish vazifasi ham doimo nazarda tutiladi. Bu ko'ppartiyaviylik tamoyillariga amalda rioya qilgan holda, milliy hamjihatlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Hayot ko'ndalang qo'yayotgan yana bir muhim vazifa dinning asl mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirishdan iboratdir. Chunki ana shundagina din xalqning nafaqat

ming yillik tarixi, balki bugungi ma'naviy hayotiga ham asos ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Karimov tomonidan ifodalangan «Olloh qalbimizda, yuragimizda»¹ degan hayotiy tamoyilga amal qilish lozim. O'rta asr allomasi Bahouddin Naqshbandning «Diling – Ollohda, qo'ling – mehnatda bo'lsin» degan hikmati bu boradagi faoliyat mezonidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish, ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida muttasil takomillashtirib borish vazifasi ham yangi jamiyat barpo etishda muhim o'rin tutadi. Chunki davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma'naviy barkamol kadrlarga bog'liq. Shu bois mazkur dasturni bajarishni izchil davom ettirish, uni yanada takomillashtirish, ta'lim jarayonini jahon xalqlari tajribasi va yutuqlarini hisobga olgan holda boyitib borish

O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning ustuvor vazifalaridan biri bo'lib qolaveradi. Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elatlarning qadriyatlari, tili, madaniyati, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analarini hurmat qilish, ularni asrab-avaylash hamda rivojlantirishga ko'maklashish ham yangi jamiyat barpo etish jarayonida markaziy vazifadir. Chunki bu ko'pmillatli mamlakat fuqarolari o'rtasida, ularning milliy va diniy mansubligidan qat'i nazar, hamjihatlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirish, «Shu aziz Vatan – barchamizniki»⁷ g'oyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish borasidagi buyuk maqsadni amalga oshirish yakunida huquqiy

demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati quriladi. Bu jamiyatning asosiy belgi va tamoyillari quyidagilardir: – barpo etilayotgan jamiyatning moddiy-iqtisodiy negizini ko'p mulkchilikka asoslangan, ijtimoiy yo'naltirilgan, muvozanat mexanizmi ta'minlangan bozor munosabatlari tashkil etadi;

– bu jamiyat o'zining siyosiy tuzumiga ko'ra – ko'ppartiyaviylikka, fikrlar xilma-xilligiga tayangan, qonun ustuvorligi ta'minlangan huquqiy demokratik davlat, ijtimoiy munosabatlarning xarakteri, tashkilotlarining o'zaro ta'siriga ko'ra esa, fuqarolik jamiyati bo'ladi;

¹ «Komsomolskaya pravda», 1993 yil 12 fevral. 4-son,3-b

² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.:O'zbekiston, 2001 y. –b. 22.

– bu jamiyat milliylik va umuminsoniylikni uygʻunlashtirgan, bunyodkor gʻoya va yangiliklarga ochiq, millatchilik, diniy ayirmachilik va aqidaparastlikdan xoli jamiyat boʻladi.

II BOB. BUGUNGI DUNYONING MAFKURAVIY MANZARASI

2.1§. Hozirgi davrda inson qalbi va ongi uchun kurash

G'oya anglangan maqsad va haqiqatni o'zida aks ettiruvchi fikr bo'lsa, mafkura ana shu maqsad va haqiqatning anglangan shakliga mos bo'lgan g'oyalar, fikrlar va ularni amalga oshirish usul va uslublari tizimidir. Shuning uchun bu tizim asosida mafkura tarkibidagi bosh va asosiy g'oyalarni amalga oshirish jarayonida tug'iladigan savollarga javob berish mumkin bo'ladi. Muayyan g'oya muayyan mafkuraga asos bo'lib, uni shakllantirishi mumkin, mafkura esa o'z tizimi tayanadigan maqsad va g'oyalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Muayyan xalqning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish yo'llari va vositalari tizimi uning milliy mafkurasi asosini tashkil etadi. Prezidentimiz Islom Karimov mafkuraning xalqni xalq, millatni millat etish borasidagi ahamiyatini ta'kidlab, shunday yozadi: «Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda, shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kuni o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oyani men jamiyat mafkurasi deb bilaman».

Erkin demokratik jamiyat barpo etishni bosh maqsad qilib olgan va taraqqiyoti ijtimoiy hamkorlikka asoslangan davlatlardagi xalqlarning milliy mafkurasi odamlarni ana shu ezgu maqsad yo'lida birlashtiradi. O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi ham jamiyatimizni yanada jipslashtirishga, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligini o'ylab, sog'lom e'tiqod va dunyoqarash bilan yashashga da'vat etadi. Kishilik tarixi mafkuralar, o'z ma'no-mohiyatiga ko'ra, falsafiy, dunyoviy, diniy va boshqa g'oya va ta'limotlar asosida shakllanishini ko'rsatadi. Mafkuraning falsafiy asoslari falsafa ilmi xulosalariga tayanadi. Yevropa xalqlarining har biri Uyg'onish davri hamda o'rta asrlarda o'z davlatchiligini tiklash jarayonida milliy-falsafiy ta'limotlar asosida o'ziga xos mafkurasini yaratgani buning yaqqol dalilidir.

Mafkuraning dunyoviy ildizlari deganda, ma'rifiy taraqqiyotga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy munosabatlar tizimi tushuniladi. Ma'lumki, bugungi kunda

dunyoviy jamiyat asosini qonun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi umume'tirof etilgan g'oyalar tashkil etadi. Bunday jamiyatda inson huquqlari va erkinliklari qonuniy asosda kafolatlanadi.

Mafkuraning diniy ildizlari deganda, uning diniy qadriyatlardan oziqlangan g'oyaviy-ruhiy asoslari tushuniladi. Masalan, xitoy xalqlari milliy mafkurasi hisoblangan, uning e'tiqodi va dunyoqarashi asoslarini belgilab bergan Konfutsiy va Lao-szi ta'limotlari diniy qarashlarga asoslangan. Bu ta'limotlar ko'p asrlar mobaynida Xitoy xalqining milliy mafkurasi bo'lib kelgan.

Ezgulik, oqibat, ilm-ma'rifat, insoniylik kabi umuminsoniy g'oyalarga asoslangan islom dini o'z tarixiy yo'lida yirik sivilizatsiyalarni yaratdi, dunyo ilm-fanini bir necha asrga ilgarilatgan allomalarning yaralishiga zamin bo'ldi. Dunyoning teng yarmini ishg'ol qilgan Amir Temur saltanati, Hindistonda ingliz mustamlakasiga qadar hukm surgan boburiylar imperiyasi, diyorimizdagi Samarqand hamda Buxoro, Xiva va Urganch kabi ilm-fan va madaniyat keng rivojlangan shaharlar fikrimizning dalilidir. Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Boborahim Mashrab, Imom Burhoniddin Marg'inoniy kabi yuzlab ma'rifat quyoshlari ham islomning hayotbaxsh g'oyalaridan ilhom olganliklarini inkor qilish mumkin emas.

Qaysi xalqning milliy mafkurasi bir-birini boyitib boruvchi ilmiy va falsafiy, dunyoviy va diniy, azaliy va zamonaviy manbalarga asoslansa, u taraqqiyot bobida ilgarilab boraveradi. Ilmiy kashfiyotlar mafkura rivojiga katta ta'sir o'tkazadi. Bugungi kunda zamonaviy fan yutuqlari, jumladan, kosmonavtika sohasidagi olamshumul yangiliklar, insonning gen-nasl xaritasini aniqlash kabi buyuk kashfiyotlar odamlar tasavvurini keskin o'zgartirib yuborayotgani shundan dalolat beradi. Kompyuterlar, uyali telefonlar, internet tizimi ham ana shunga xizmat qiladi. Lekin ilm-fan va madaniyat borasidagi yutuqlardan oqilona foydalanish uchun ham sog'lom g'oya, sog'lom mafkura kerak. Aks holda, ilm-fan yutuqlarini noto'g'ri qo'llash oqibatida Xirosima, Nagasaki, Chernobil fojialari, bugungi ommaviy qirg'in qurollari, ekologik halokatlar, ma'naviy tanazzulga o'xshash umumbashariy muammolar yanada kuchayib borishi mumkin.

Demak, mafkura – o‘zining bosh va asosiy g‘oyalari hamda tamoyillariga tayanib, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamning, millat yoki davlatning ehtiyojlarini, maqsad, intilish va manfaatlarini ifoda etadigan, ularni amalga oshirish, e‘tiqod va dunyoqarash asoslarini shakllantirishning usul va vositalari tizimidir.

Hayotiy kuzatishlar, ba‘zan ziyolilarimiz o‘rtasida ham bizga milliy g‘oya, milliy mafkura nima uchun, kim uchun kerak, uning ma‘no-mohiyati nimadan iborat, degan muhim masalaga yana bir bor oydinlik kiritish zarurati mavjud. Bunda, ya‘ni milliy g‘oyada O‘zbekiston xalqining mamlakatimiz rivojida belgilab olgan asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi mujassamlashgan.

Birinchidan, o‘zining kelajagini ko‘rmoqchi va qurmoqchi bo‘lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta o‘z milliy g‘oya va mafkurasiga suyanishi va tayanishi zarurligi bilan bog‘liq.

Prezident Islom Karimov ta‘biri bilan aytganda, «davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog‘i lozim. YA‘ni, oldin davlat qurilishi va undan keyin mafkura paydo bo‘lishi o‘zi g‘ayritabiiy hol. Buni yaxshi anglab olishimiz lozim. YA‘ni, oldin g‘oya paydo bo‘ladi, undan keyin g‘oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo‘ladi»¹. Demak, o‘z milliy g‘oyasiga tayanmagan jamiyat inqirozga duchor bo‘lishi, o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘yishi muqarrar.

Ikkinchidan, milliy g‘oya O‘zbekiston xalqining asosiy maqsad va muddaolarining ifodasi sifatida shuning uchun ham zarurki, odamlar ongini, tafakkurini o‘zgartirmasdan turib, ko‘zlangan oliy maqsad – ozod va obod jamiyatni, erkin va farovon hayotni barpo etib bo‘lmaydi. Buning uchun esa, odamlar muayyan g‘oyaga ishonishi va tayanishi zarur. Bu jarayon o‘z-o‘zidan harakatga kelmaydi, albatta. Negaki, keng xalq ommasini biron bir g‘oyaning ilg‘or va insonparvar ekaniga ishontirmoq uchun, avvalo, mazkur g‘oyaning to‘g‘ri, hayotiy va ilg‘or ekanligiga ishontirish zarur. Ishontirmoq uchun uning ilmiy va hayotiylikiga alohida e‘tibor qaratish bilan birga milliy g‘oyaning o‘zi mamlakatimiz xalqining asosiy maqsad va muddaolari hamda manfaatlarini ifodalashi kerak.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz.. –T.: «O‘zbekiston», 2000 y. 464-465-b.

Uchinchidan, milliy g'oyaning zarurligi millatning o'zligini to'la anglash jarayoni bilan bog'liq. Negaki, millat o'zligini to'la anglamas ekan, biron-bir buyuk o'zgarishlar qilib bo'lmaydi. Milliy o'z-o'zini anglash u yoki bu millatni o'zga millatlardan ajralib ketishiga emas, balki o'zligini anglagan millatlarning ma'rifatlashgan hamkorliklarining mustahkamlanib borishiga xizmat qiladi. Ana shunday o'ta murakkab vaziyatda milliy o'zlikni anglashda milliy g'oyaga asosiy tayanch kuch, ilmiy-nazariy va amaliy dastur sifatida har bir insonning ruhi, kayfiyati, hissiy kechinmalariga kirib borish orqali uning qalbi hamda ongiga ta'sir ko'rsatadi. Bu milliy g'oyaning xalq hayotiga yaqin, unga bevosita daxldor ekanligini ta'kidlash lozimdir.

To'rtinchidan, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlashda milliy g'oyaning zarurligi yana bir muhim holat bilan ya'ni bugun bizning tarixiy o'zgarishlar davrida totalitar tuzumdan erkin demokratik bozor munosabatlariga asoslangan demokratik tuzumga o'tish sharoitida yashayotganligimizdan kelib chiqmoqda. Bu davrning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov shunday xulosaga keladi: «Bu o'tish davri o'ziga xos, juda katta g'ov va to'siqlarga duch kelishi, qattiq kurashlar orqali kechishi barchamiz uchun ayon bo'lmog'i darkor. Xalqimiz va jamiyatimizni mana shu davrda yangi ufqlar sari boshlash, da'vat qilishda maqsadlarimiz aniq bo'lishi kerak. Bunday maqsadlarga esa avvalo chuqur o'ylangan va puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin»¹. Demak, milliy g'oya mustaqillikni mustahkamlash g'oyasining o'zagi bo'lgan - tanlagan taraqqiyot yo'limizning to'g'ri adolatli va haqqoniy ekanligiga, u mana shu zaminda istiqomat qiladigan har bir insonning hayotiy manfaatlariga mos tushishiga keng ommani ishontirish orqali ularni bunyodkorlik ishlariga safarbar etish uchun xizmat qiladi. Erkin va farovon hayot asoslarini yaratib, yanada olg'a intilayotgan ilg'or mamlakatlar o'z mafkuralarini umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillar negizida rivojlantirmoqda. Chunki bunday mafkura insonning o'z salohiyatini erkin namoyon etishi uchun imkon beradi. Jumladan, Vatanimizning butun kuchqudrati, yaratuvchilik iste'dodi yurtimizni yanada ravnaq toptirish, tinchlik-osoyishtalikni

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. –T.: «O'zbekiston», 2000 y. 465-b.

mustahkamlash, shu muborak zaminda yashayotgan barcha insonlar uchun farovon hayot poydevorini yaratishga qaratilgan. Shu bilan birga, bugungi tajovuzkor millatchilik, shovinizm, neofashizm, irqchilik va diniy ekstremizm kabi zararli mafkuralar taraqqiyotga moslashib, yangi shakllarda bosh ko'tarmoqda. Masalan, sobiq Yugoslaviya hududidagi tajovuzkor millatchilik, hududiy ayirmachilik asosidagi to'qnashuvlar, Afg'oniston hududida uya qurib olgan diniy ekstremistik kuchlar bunga misol bo'la oladi. Diniy ekstremizm dinni niqob qilib olib, zo'ravonlik asosida konstitutsion tuzumga tajovuz qiluvchi, uni o'zgartirishga urinuvchi jinoyatkor xatti-harakatdir. U bugungi kunda ko'plab mintaq va mamlakatlarda uchrab turibdi. Hozirgi davrda mafkuraviy jarayonlar o'ziga xos qator xususiyatlar kasb etmoqda. Bunda mafkuraviy jarayonlarning, bir tomonidan, demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi, ya'ni fikrlar xilma-xilligi va rang-barang siyosiy kuchlarning tolerantligi namoyon bo'lmoqda. Ikkinchi tomondan mafkuraviy jarayonlar siyosiy lashish, inson va jamiyat hayotining barcha sohalariga umumiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega bo'lmoqda. Uchinchidan, mafkuraviy jarayonlarning milliy davlatlar chegarasida qolib ketmaslik, globallasuv, integrallasuv va differensiallashuv kabi xususiyatlari ko'zga tashlanmoqda. Bugungi kunning mafkuraviy manzarasiga ijtimoiy jarayonlarning globallasuvi ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu hol axborot Bugungi dunyoda g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari tobora kengaymoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada, odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan turli mafkuraviy markazlarning muttasil bosimini doimiy sezib yashamoqda. XX asr so'ngida ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini tubdan o'zgartirib yubordi. Inson qalbi va ongini egallash uchun kurash xilma-xil g'oyalar bilan qurollangan, turli manbalardan oziqlanadigan mafkuralarining asosiy maqsadiga aylanmoqda. Jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar Buyuk davlatchilik gegemonizmi asosida Etnik birlik va qadriyatlar birligini asos qilish yo'li bilan Axborot vositalarini qo'llash orqali Diniy mansublikka ko'ra Universal texnologiyalarni qo'llash asosida Sobiq ittifoqni tiklash da'volari

asosida tarqatish tizimining, jumladan, internet tarmog'ining butun yer yuzini qamrab olishi bilan ham bog'liqdir. Endilikda dunyoning bir burchagida qandaydir yangilik paydo bo'lsa, u darhol, mafkuraviy maqsadlarga bo'ysundirilgan holda, butun jahonga tarqaladi. Masalan, dunyoning biron-bir mintaqasida texnik sabab yoki tabiat hodisalari natijasida baxtsizlik sodir bo'lsa, bir mafkuraviy markaz o'ziga dushman bo'lgan boshqa markazni ayblashga tushadi. Ya'ni «bu fojida falon markazning qo'li bor», deb butun dunyoga jar soladi. Bu jarayonda qaysi markazning axborot tarqatish imkoniyati ko'p bo'lsa, odamlarga nima ta'sir etishini, ular nimaga muhtoj ekanini kim oldindan yaxshiroq bilsa, dastlab o'sha kuch ularning qalbi va ongiga o'z nuqtayi nazarini singdiradi va axborot jangida yengib chiqadi. Shuning uchun bugungi kunda dunyodagi turli kuch va markazlar o'rtasida axborot jangi yetakchi o'ringa chiqmoqda. Aslida turli mafkuralar ba'zi odamlarning soddaligidan foydalanib, mana shunday kurashlar orqali siyosiy maqsadlarni ko'zlaydi, ya'ni jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinadi¹.

XXI asrning boshlariga kelib mafkuraviy jarayonlarning universallasuvi shu darajaga yetdiki, undan biror kishi chetda qolayotgani yoq. U butun Yer yuzini barcha mintaq va mamlakatlarini qamrab oldi, dunyodagi barcha odamlar uning ta'siri ostida hayot kechirmoqda. Masalan, vahhobiylar sobiq ittifoq hududidagi musulmon xalqlarning mustabid tuzum davrida ancha vaqt diniy ma'rifatdan uzilib qolganidan foydalanib, dinni o'rgatish bahonasida o'zlarining zararli g'oyalarini odamlarning qalbi va ongiga singdirmoqchi bo'ldi. Bu hol bizning mintaqamizda, xususan, O'zbekiston hududida ham ko'zga tashlandi. Lekin o'zining qadimiy an'analarga, mumtoz qadriyatlariga, ajdodlarining boy merosi va ma'naviyatiga ega bo'lgan xalqimiz bunday «da'vat»larga uchmadi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, mustaqil taraqqiyotimiz tajribalari va bugungi sivilizatsiya yutuqlari asosida o'z mafkurasini ishlab chiqishga kirishdi.

Bunday xavf-xatarlarga qarshi turish uchun xalqimizda, avvalo, yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirish taqozo etiladi.

Immunitet (lotincha – ozod bo'lish, qutulish ma'nosidagi immunitas so'zidan olingan) deganda organizmdagi mo'tadillikni saqlab, uni turli tashqi ta'sirlardan,

¹ Karimov I.A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik. T.: «O'zbekiston», 1993 y, 9-b.

infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo'lgan muhofaza tizimi tushuniladi. «Mafkuraviy immunitet» tushunchasini birinchi bor Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va uning mohiyatini quyidagicha tushuntirib bergan: «Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning immunitetini kuchaytirishimiz zarur»⁸. Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har bir yurtdoshimizning mustaqil e'tiqod va dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. U Prezidentimiz Islom Karimov asarlarida ilgari surilgan oliyjanob g'oyalar, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohot natijalari, Vatanimiz va dunyo tarixi, milliy va umumbashariy qadriyatlar, zamonaviy sivilizatsiya yutuqlariga doir bilim hamda tasavvurlarga tayanadi.

Sog'lom immunitetga ega bo'lmagan odam sog'lom e'tiqod va dunyoqarashdan ham mahrum bo'ladi. Bunday kishilar yaxshi bilan yomonning, ezgulik bilan jaholatning farqiga bormaydi. Ular uchun xalq va Vatan manfaatlari begona. Sog'lom immunitetli odam o'zini yomon ishlardan tiyadi, nohaqlik va zulmga qarshi qalbida norozi bo'lib, o'z nafratini bildiradi. Binobarin, yomonlikka qarshi nafrat, yaxshilikka nisbatan muhabbat va xayrixohlik sog'lom immunitetning asosiy belgilaridandir. Mafkuraviy immunitetning asosiy xususiyatlari ogohlik, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurasha olish ko'nikmalaridir. Bu tamoyillarni Prezidentimiz asoslab bergan.

Ogohlik dunyodan, yon-atrofda bo'layotgan o'zgarishlardan, odamlar va xalqlarning orzu-intilishlaridan doimiy boxabar bo'lib yashashdir. Mana shunday qoidani hayot qonuniga aylantirgan xalq hayotda paydo bo'layotgan muammolarni vaqtida hal etadi, tajovuzkor kuchlarning har qanday g'oyaviy hamlalariga qarshi munosib zarba bera oladi. Yovuz g'oyalar mamlakatimizda tanlangan demokratik, tinch taraqqiyot yo'liga qarshi qaratilganligini Andijonda sodir etilgan terrorchilik harakatlari yana bir bor tasdiqladi. Bu to'g'rida Islom Karimov shunday deydi:

Karimov.I.A «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot–pirovard maqsadimiz». –T., «O'zbekiston», 2000 y, 494-b.

«Xalqaro ekstremistik guruhlar tomonidan puxta o‘ylab, tashkil etilgan bu yovuz harakatlar, avvalambor, tinch, osuda hayotimiz va orzuimizni buzishga, O‘zbekistonni o‘zining mustaqil yo‘lidan qaytarishga, yurtimizda konstitutsion tuzumni ag‘darish, qandaydir «xalifalik davlatini» o‘rnatishdek xomxayollarni amalga oshirishga qaratilgani bugun barchamizga ayon». Bu mudhish voqealar va ularning oqibatida ko‘pgina odamlar halok bo‘lishining tegishli sabablarini yoshlar yaxshi bilishlari, tushunishlari lozim. Qo‘poruvchilik harakatining chetdan turib tashkil etilgani, bunga uzoq tayyorgarlik ko‘rilgani, katta mablag‘ ajratilganini ta’kidlash lozim. Bu har bir kishini, yoshlarni ogoh bo‘lishga, unga befarq qaramaslikka undaydi. Shundagina turli tahdid va xavf-xatarlarning oldini olgan bo‘lamiz. Xuddi shuningdek, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashga intilish hissi inson qalbidagi sog‘lom e’tiqod, uning ongidagi sog‘lom dunyoqarash shakllanganidan, u endilikda o‘z-o‘zini himoya qila olish qobiliyatiga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, mafkuraviy immunitet bugungi kunda hayotiy zarurat bo‘lib, u xalqimizni yot va zararli g‘oyalar xurujidan asrashda, yurtimiz bolalarini sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetkazishda, ko‘zlagan oliyjanob maqsadlarimizga erishishda muhim ahamiyatga egadir.

2.2§. Globallashuv sharoitida mafkura va g'oya

Hozirgi davrda g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashib, yer yuzidagi barcha mintqa va mamlakatlarni qamrab olib, quyidagi xususiyatlarini namoyon qilmoqda, ya'ni: *Birinchidan*, xalqaro miqyosda **integratsiyalashish** ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, milliy chegaralarni shartli qilib qo'yimoqda. *Ikkinchidan*, xozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning **globallashish** xususiyati ob'ektiv jarayon bo'lib, jamiyat hayotining hamma sohalariga istisnosiz ta'sir ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. *Uchinchidan*, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari milliy rivojlanishning modellarida **differetsiyalashish** jarayonlarini namoyon qilib, insoniyat taraqqiyotida umumiy qonuniyatlarni milliy darajada konkretlashtirmoqda. *To'rtinchidan*, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy munosabatlarning texnik-texnologik, intellektual asoslari, aloqa kommunikatsiya vositalari rivojlanishi natijasida g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning **intensivlashuvi** bilan xarakterlanadi.

XX asrning oxiri - XXI asr boshlarida dunyoda ana shu jarayonlar bilan bog'liq jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Ilgari oddiy fuqarolar, hatto mutaxassislar tasavvur etolmagan hodisalar sodir bo'lishi tufayli dunyoning siyosiy qiyofasi o'zgarib, barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy sohalarda yangi sifat o'zgarishlariga sabab bo'ldi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuvi, binobarin g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib, baynalminallashib, universallashib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyilining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu

jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda.

Bunday holatning asoslari ham, paydo bo'lish sabablari ham ko'p. Ammo, eng muhimi 70 yildan ortiqroq hukm surgan ikki ziddiyatli, bir-biriga qarama-qarshi qutblarning barham topishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. «Totalitar tuzum yemirilgandan keyin, - degan edi I. Karimov, - dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qoldimi?»⁹. Darhaqiqat, masalaning shu tarzda qo'yilishida juda katta mantiq bor. Zero, XX asr oxirida «ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini o'zgartirib yubordi»¹⁰. Chunonchi, hozirgi kunga kelib:

1. Alohida olingan mamlakatlar, davlatlar ittifoqi yoki harbiy bloklar o'rtasidagi urushlar xavf nisbatan kamaydi
2. Sobiq sovet deb atalgan imperiya va jahon sotsialistik lagerining barham topishi oqibatida dunyoda ikki qutbli g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlar o'rniga ko'p qutbli holat vujudga keldi.
1. Dunyo xaritasining o'zgarishi bilan siyosiy iqlim mo'tadillashuvi g'oyat nisbiy xarakter kasb etdi, ya'ni an'anaviy ziddiyatlar o'rniga yangi – noan'anaviy ziddiyatlar vujudga keldi va ular tobora keskinlashmoqda.
2. Global muammolarni hal qilishda siyosiy munosabatlarning integratsiyalashuvi tendensiyasi qonuniyat maqomiga ega bo'lib, turli davlatlar, xalqlar, millatlarning rivojlanish istiqbollari shu qonuniyatga bog'liqligi anglab yetilmoqda. Qurol kuchi bilan bo'ladigan urushlar o'rnini mafkuraviy agressiya va tajovuzlar egallamoqda.

XX asrning oxirlarida insoniyat sivilizatsiyasiga yangi jiddiy xavflar vujudga keldi. Xalqaro terrorizm, global narkobiznes, jahon korrupsiyasi, fundamentalizm,

⁹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. O'zbekiston buyuk kelajak sari. –T.:O'zbekiston, 1999. b-419.

² Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.:O'zbekiston, 2001. –B. 22.

ekstremizm kabi hodisalar ham integratsiya, globalizatsiya, universallashtirish va intensivlashtirish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Xususan, insoniyatning o'tmish tarixi shundan dalolat beradiki, urushlar - ijtimoiy taraqqiyotning kushandasi, rivojlanishning to'sig'idir.

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, o'tgan 5 ming yil mobaynida insoniyat hammasi bo'lib 292 yil urushlarsiz, tinchlikda yashagan. Qolgan vaqtda 14 mingdan ortiq urushlar bo'lgan va ular 3 mld. 64 million kishining yostig'ini quritgan. Ushbu urushlarga ketgan mablag'larni oltin bahosida hisoblaganda qalinligi 10 metr, eni 161 km. ga to'g'ri keladigan va yer sharini to'la aylanib chiqishga yetadigan oltin kamar yasash mumkin edi¹¹.

XX asrda ro'y bergan jahon urushlarining birinchisi 10 mln., ikkinchisi esa 60 mln. dan ortiqroq kishining halok bo'lishiga, millionlab kishilarning boshpanasiz qolishiga, minglab shahar va qishloqlarning vayron bo'lishiga, pirovard natijada esa insoniyat hayotida ulkan yo'qotishlarga sabab bo'ldi.

Sotsialistik «lager»ning barham topishi bilan uchinchi jahon urushi xavfi tamomila yo'qoldi, degan siyosiy xulosa, hozircha o'zining qat'iy isbotini topgan emas. Biroq, hozirgi davrga kelib, xalqaro ijtimoiy-siyosiy, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning yuqorida ko'rsatilgan jarayonlari quyidagi umumiy xulosalarga asos bo'lishi mumkin:

- tinchlik umuminsoniy g'oya va qadriyat ekanligi to'g'risidagi ijtimoiy fikr global ahamiyat kasb etmoqda;
- olamshumul muammolarni hal etishda, bahsli vaziyatlar yechimida muzoqaralar va diplomatik murosa yagona ma'qul usul ekanligi tan olinib boshlandi;
- har bir davlatning milliy manfaati jahon hamjamiyati manfaati bilan uyg'unlashgandagina ma'lum yutuqqa erishish mumkinligi aniq bo'lib qolmoqda.

Boshqacha aytganda, hozirgi kunga kelib dunyoning siyosiy qiyofasi o'zgardi. Global muammolar keskinlashuvining oldini olish uchun aniq shart-sharoit va imkoniyatlari paydo bo'ldi. Ilgari bir-biri bilan g'oyaviy-mafkuraviy nuqtai nazardan dushmanchilik kayfiyatidagi davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, bir-birini hurmat qilish, milliy manfaatlariga tajovuz qilishdan tiyilish, xullas dunyoda ijtimoiy-siyosiy

¹¹ Shayxova X., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. –T.:O'zbekiston, 1992 y. b- 11.

barqarorlikni ta'minlashda integrativ faoliyat zarurligi anglab yetilib, uning universal usullari va vositalarini qidirishda hamfikrlik yuzaga kelmoqda.

Ammo, shu bilan birga, hozirgi paytda g'oyaviy-mafkuraviy agressiya, tazyiqlarning kuchayishi yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, ma'naviy-mafkuraviy tajovuzlarning yangi-yangi yo'nalishlari vujudga kelib, ular globallasib bormoqda. Bu tajovuzlar ma'lum millat (yoki ular guruhi)ning ijtimoiy barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tuzumni zaiflashtirish va buzishga yo'naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda unga asoslangan amaliyot tarzida namoyon bo'lmoqda.

Mafkuraviy tajovuzlarning hozirgi kundagi miqyosi va keskinligi shu darajada ortib ketdiki, uni bir davlat miqyosida, alohida olingan bir mamlakat darajasida hal etish amalda mumkin bo'lmay qoldi. Ayniqsa, buzg'unchi g'oyalar, diniy ekstremizm, axloqsizlik g'oyalarini singdirish mafkuraviy tajovuzning asosini tashkil etmoqda. Bunday mafkuraviy tajovuzlarning maqsadi, aholining ma'lum qatlamlarida, ayniqsa yoshlar o'rtasida parokandalikni keltirib chiqarish, ularda rasmiy davlat va konstitutsion tuzumga nisbatan norozilik kayfiyatini o'yg'otishdan iboratdir.

Mafkuraviy tajovuzlar tizimida diniy ekstremizm u yoki bu dinning o'ta tajovuzkor va jinoiy yo'naltirilgan mazhabi yoki oqimi hisoblanib, insoniyatga juda katta zarar yetkazmoqda. Hozirgi kunda diniy ekstremizm xalqaro miqyosda kuchlarni birlashtirib, hamkorlikda qarshi kurashni taqozo qiladigan global muammoga aylandi.

Geosiyosat – hozirgi davrda dunyo mamlakatlari xalqaro siyosatida, siyosat falsafasida keng qo'llanilmoqda. U ko'p qirrali tushuncha bo'lib, turli davlatlarning o'z manfaatlarini ko'zlagan holda ma'lum hududga nisbatan yuritadigan siyosatini bildiradi. Masalan, O'zbekistonni olsak, u bilan o'zaro iqtisodiy va boshqa sohalarda aloqa qilishni yo'lga qo'ymoqchi bo'lgan har bir davlat, O'zbekistonning Markaziy Osiyoda eng yuqori salohiyatli, yer usti va yer osti boyliklari, ishchi kuchlariga boy ekanligini, Yevropa va Osiyoni o'zaro bog'lovchi yo'lining tugun nuqtasi ekanligini, uning mintaqada tutgan tinchliksevar siyosati, iqtisodiy va siyosiy barqarorligini nazarda tutgan holda siyosat yurgizadi.

Mamlakatimizning Markaziy Osiyoda tutgan oʻrni nihoyatda oʻziga xos. Oʻzbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik, aholisining soni eng koʻp va iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy salohiyati yuqori boʻlgan mamlakatdir. Buning ustiga Oʻzbekistonda bozor iqtisodiyotiga oʻtishni muvaffaqiyatli modeli ishlab chiqilgani va amalga oshirilishi, mamlakatda ishonchli tinchlik, barqarorlikning mavjudligi, uning xalqaro masalalarni hal qilishdagi faolligi shunday natijaga olib keldiki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi biror jarayonda Oʻzbekiston ishtiroki nazarga olinmay iloji yoʻq. Tinchlik va xavfsizlik masalalari, avtomobil va temir yoʻl, aloqa kommunikatsiyalarini bunyod etish, terrorizm, narkobiznesga qarshi kurash masalalarida Oʻzbekiston yetakchi rol oʻynashi tabiiy. Oʻzbekistonning Yevropani Xitoy bilan bogʻlovchi, yoki Markaziy Osiyoni Kavkaz orqali Yevropa bilan bogʻlovchi yoʻllar qurilishi loyihasida qatnashayotgani, Shanxay hamkorlik tashkilotida aʼzo boʻlishi, boshqa xalqaro tashkilotlardagi oʻrni uning nufuzini yanada yuqori koʻtaradi.

Bugungi kunda geosiyosiy maqsadlar koʻproq mafkuraviy siyosat bilan hamohang boʻlmoqda. Mafkuraviy taʼsir koʻrsatish geosiyosatning eng taʼsirchan vositasiga aylanmoqda. Yaʼni baʼzi kuchlar dunyo xalqlarining turli qatlamlari, xususan, yoshlar ongi va tafakkuriga mafkuraviy taʼsir koʻrsatish orqali, ularning faoliyatini shaxsiy va gʻarazli manfaatlarga yoʻnaltiradigan mafkuraviy muhit yaratishni koʻzlamodalar. Ana shu sababdan ham Prezidentimiz mafkuraviy poligonlar yadro poligonlariga qaraganda xavfliroq, deya alohida taʼkidlaganlar.

Buning xavfliligi shundaki, mafkuraviy taʼsirni koʻz bilan koʻrish, qoʻl bilan ushlash qiyin. Baʼzida uni sezish, tasavvur qilish ham qiyin. Qaysi davlatning kuchi qanchaligi, armiyasining soni va yadro poligoni qayerda joylashganini, uning quvvatini, qanday maqsadga yoʻnalganligini muayyan darajada aniq bilish mumkin. Ammo yovuz, mafkuraviy maqsadlarning qaysi yoʻllar bilan insonlar qalbini egallab olayotganligini osonlikcha bilib boʻlmaydi. Bugungi dunyoda turli hudud xalqlarini maʼnaviy-mafkuraviy jihatdan tobe etishga intilish va dunyoni shunday asosda boʻlib olishga urinishlar davom etmoqda. Buning uchun ular ommaviy axborot vositalari, turli xil markazlardan foydalanmoqdalar.

Masalan, turli jangari filmlar, bolalar uchun kompyuter programmalari, teleoʻyinlardan foydalanish hollari mavjud. Ana shunday sharoitda milliy istiqlol

g'oyasini chuqur egallash orqaligina bunday maqsadlarning asl mohiyatini to'g'ri tushunish mumkin.

XX asrning oxirida dunyoda jahonshumul voqealar ro'y berdi. Sobiq SSSRning parchalanishi, hukmron mafkurasining barbod bo'lishi dunyo yangi xaritasini o'zgartirib yubordi. Sobiq sho'rolar hukmronligi sharoitida kommunistik mafkura yuzdan ortiq millat vakillarini zo'rma-zo'raki birlashtirib turgan edi. Bu Markaziy Osiyoga ham xos edi. Mintaqadagi sobiq ittifoqdosh respublikalar o'zlarining mustaqilligini qo'lga kiritishi bilan sho'ro mafkurasi barbod bo'ldi.

Sobiq markaz hali o'z hukmronligini qaytadan tiklashga moyil bo'lgan kuchlar vositasida 90-yillarning boshlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish, millatlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish kabi siyosatni davom ettirdi. Aslida, bu urinishlar mintaqa mamlakatlari va xalqlari o'rtasida mavjud bo'lgan azaliy do'stlikka putur yetkazishga qaratilgan mafkuraviy harakatlar edi. Natijada, Markaziy Osiyodagi ba'zi davlatlarda beqarorlik ro'y berdi. Bunday sharoitda «aqidaparastlik», «terrorchilik», «ekstremizm» g'oyalari O'zbekistonga ham suqulib kirishga harakat qila boshladi. Bugungi kunda Markaziy Osiyoga kirib kelishga harakat qilayotgan bunday vayronkor kuchlar o'z harakatlarini dinning asl qadriyat va aqidalarini tiklash da'vosi bilan oqlashga urinmoqda.

Aslida, «fundamentalizm» va «ekstremizm» g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad – diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish va shu orqali mintaqada beqarorlikni, diniy va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Bu urinishlar tuzatib bo'lmas fojialarga olib kelishi mumkin. Ular mintaqamizni urush botqog'iga botirib yuborishi, ayrim davlatlarda ro'y berayotgan xunrezlik va birodarkushlikni boshqa mamlakatlarga ham tarqatib yuborishi mumkin. Bugun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm tomonidan Markaziy Osiyoda olib borilayotgan qo'poruvchilik va terrorchilik harakatlarining ham ana shunday natijalarga olib kelish ehtimoli yo'q emas.

Bu xavfni Prezidentimiz teran anglab, uning oqibatlari dahshatli bo'lishi mumkinligidan hammamizni ogoh qilib, «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» nomli asarida

shunday yozgan edi: «Ko‘plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergan «islom uyg‘onishi», «qayta islomlanish», «islom fenomeni» va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar. Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e‘tiborni jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog‘i ostida ro‘y berayotgan hodisalar g‘oyat xilma-xil, ko‘pqirrali, ba‘zan ziddiyatli va hatto qaramaqarshi qutbli ekanligiga qaratmoqchiman. Shu bilan birga, aniq-ravshanki, jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarabgina qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotganligi ba‘zan esa, hatto, xavfsirayotgani ham ko‘zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi zamon sharoitida ana shu o‘ta keskin ko‘rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho‘chityapti. Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to‘planib qolgan. O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta‘minlash zarurligi nuqtayi nazaridan qaraganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy tashvish tug‘dirmoqda». Prezidentimizning ana shu fikri haqiqat bo‘lib chiqdi. Xalqaro terrorchilar 1999-yilning 16-fevralida Toshkentda, 2000-yilning avgust oyida Sariosiyo tumani hududida, 2004-yil 28–30-mart kunlari Toshkent shahri va Buxoro viloyatida, 2005-yil 13-may kuni Andijon shahrida o‘zlarining qora niyatlariga erishish maqsadida qo‘poruvchilikni amalga oshirdi. Bu qo‘poruvchilik harakatlari orqasida katta kuchlar borligi ayon edi. Ularning maqsadi xalqimizning tinchligini buzish, aholini qo‘rqitish, yuragiga vahima solish, amalga oshirayotgan ezgu ishlarni yo‘qqa chiqarishga harakat qilish edi.

Bu fojialarning O‘zbekistonda sodir etilishining asosiy sababi shuki, yurtimizning yutuqlari jahon jamoatchiligi tomonidan e‘tirof etilmoqda, nisbatan qisqa davr ichida O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy barqaror, umuminsoniy qadriyatlar ustuvor mamlakatga aylandi. Xuddi mana shu o‘ta katta ahamiyatga ega bo‘lgan omil taraqqiyotimiz dushmanlarini vahimaga solgani aniq. G‘animlar buni ko‘rolmayapti, yutuqlarimizdan bahramand bo‘lishimizga xalaqit berishga harakat qilmoqda. Aslida, mustaqillik yillarida mamlakatimizda haqiqiy islom qadriyatlari tiklandi, ular xalqimiz ma‘naviyatining ajralmas qismiga aylanib qoldi.

Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida ham bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan xalqlararo mustahkam do'stlikka qaratilgan siyosat qo'llab-quvvatlanmoqda. Chunki, mintqa tub xalqlarining ma'naviy ildizlari bir, turmush tarzi yaqin. Shu ma'noda ularning birligini mustahkamlash umummintaqaviy ma'naviy yuksalishimizga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazib turaveradi.

Biz yashayotgan mintaqadagi mafkuraviy jarayonlar tizimida Afg'onistondagi beqaror vaziyat ham alohida o'rin egallab turibdi. O'ttiz yildan ziyod vaqtdan buyon davom etib kelayotgan harbiy mojarolar oqibatida umuminsoniy sivilizatsiyadan uzilib qolgan Afg'oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurolyarog' va giyohvand moddalar noqonuniy savdosining asosiy o'chog'i bo'lib qoldi. Hozir asosiy e'tibor Afg'onistonda tinchlik o'rnatish muammosiga qaratilishi kerak.

2000-yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining «Ming yillik sammiti»da Prezident Islom Karimov mintaqamiz xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro terrorizm va narkobiznesga qarshi faol kurashish, Markaziy Osiyodagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e'tibor qaratdi. 2008-yil 2-aprelda bo'lib o'tgan NATO/SEAP sammitida so'zlagan nutqida Afg'oniston bo'yicha yana bir muhim taklifni ilgari surib, bunday dedi: «2001-yilgacha faoliyat ko'rsatgan «6+2» muloqot guruhini hozirgi voqelikni inobatga olgan holda va muzokaralar jarayonida NATO vakolatxonasi ham, albatta, ishtirok etishini nazarda tutib, «6+2» ni «6+3» guruhiga aylantirish zarur, deb hisoblaymiz». Mintaqada xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti mojarolarni to'xtatish, mustahkam tinchlikni ta'minlashdir. Bu borada O'zbekiston ilgari surayotgan mintqa mamlakatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bularning barchasi mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Ana shu sohada boshlangan ijobiy harakatni davom ettirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Xalqaro terrorizm o'zining mudhish qiyofasini o'ta mash'um «Al-Qoida» terroristik guruhi timsolida namoyon qildi. 2001-yilning 11-sentabrida Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Xalqaro savdomarkazining portlatilishi, insoniyat sabr kosasiga tomgan

oxirgi tomchi bo'ldi. Dunyo hamjamiyati terrorizmning keng yoyilib borayotganligi va uning oldini olish birgina Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining vazifasi bo'lmay, butun dunyo xalqlarining asosiy maqsadi bo'lishi lozimligi haqidagi mamlakatimiz rahbarining chaqiriqlari va o'z vaqtida ogohlantirishlari nechog'li achchiq haqiqat ekaniga iqror bo'ldi. Xalqaro kuchlar Afg'onistonda «Toliblar» rejimini mag'lub qilganidan keyin bu fojيانing oldi birmuncha olingan bo'lsa-da, uni ildizi bilan qo'porib tashlash uchun hali uzoq va mashaqqatli kurash olib bormoq lozim bo'ladi.

Yot g'oya va mafkura sohasidagi kurashlarga milliy g'oyaga tayangan holda javob berish mumkin. Yoshlar buni hisobga olishlari muhim. Chunki, «Tobora kengayib, o'z shaklini o'zgartirib borayotgan g'arbona axloqsizlikni esa aksariyat g'o'r va tajribasiz yoshlar «yevropacha madaniyat» va «erkinlik» sifatida qabul qilishga intilishi va aldanib qolishi hech gap emas».

Mafkura sohasidagi kurashlar doimo axborot olamidagi yangiliklar bilan niqoblangan holda turli xil ko'rinishlarda o'zini namoyon etadi. «Boshqariladigan iqtisod», «boshqariladigan demokratiya», «rangli inqiloblar» kabi modellar ham shunday ko'rinishlardan. Uning milliy g'oya negizlariga to'g'ri kelmasligini hisobga olish zarur. Bugun mafkura sohasida «demokratiya»ni eksport qilishga urinish, «uning xilma-xil modellarini e'tirof etmaslik» bilan bog'liq kurashlar davom etmoqda. Bu o'ziga xos xavf-xatar manbayi hisoblanadi. Milliy g'oya negizlari esa demokratiya modellarining xilma-xilligini e'tirof etadi. Bu milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash bilan bog'liq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni hal etish mintaqadagi barcha mamlakatlarning istiqbolini bir qadar belgilab beradi. Shuning bilan birga, bu mintaqada yashayotgan xalqlarning azaliy qonqarindoshligi, hamkorligi va ma'naviy-ruhiy yaqinligini mustahkamlash borasida o'ta muhim ahamiyatga molik masala bo'lib qolaveradi. Bu esa hozir va kelajakda ham ushbu masala o'z dolzarbligini saqlab qolishini bildiradi.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo siyosiy xaritasida ro'y bergan tub o'zgarishlar tufayli bu mintaqaga nisbatan geosiyosiy yondashuvlarning ifodasi bo'lgan mafkuraviy jarayonlar murakkablashib bormoqda. Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga

bo‘lgan ishonch-e’tiqodni mustahkamlash yo‘lida xavfxatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo‘lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqa xalqlari uchun hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi.

XULOSA

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqaro miq-yosda o'zini tanitish, ayni chog'da xalqaro huquq me'yorlari asosida jahondagi barcha davlatlar b-n teng hamkorlik qilish imkoniyatini qo'lga kiritdi. Jahon xaritasida O'zbekiston yangi, yosh mustaqil davlat sifatida o'z o'rniga ega bo'ldi. Iqtisodiyotda tub o'zgarishlar qilish uchun imkoniyat yaratildi. Ya'ni jahon amaliyoti isbotlagan bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun sharoit barpo etildi. Mulkka munosabat tubdan o'zgarib, jamiyatda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun imkon ochildi.

Mustaqillik xalqning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurt tarixi, qadimiy madaniyat tiklana boshladi. Xalqining azaliy urf-odatlari, ma'naviy qadriyatlari unga qaytarib berildi. Dinga munosabat mutlaqo ijobiy tomonga o'zgardi. Shunday qilib, qo'lga kiritilgan M. o'zbek xalqi tarixida tamoman yangi davrni boshlab berdi, milliy dunyoqarashda yangicha tafakkur shakllana bordi. Xalq kelajakka ishonch b-n qaray boshladi. O'z yurtining to'la xo'jay-ini ekanligini, o'z takdirini o'zi belgilash imkoniyatini qo'lga kiritganligini his qila boshladi.

O'zbekiston tanlab olgan taraqqiyot yo'li bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tishni ta'minlab beradigan taraqqiyot modeliga misol bo'la oladi. Dunyoda bu borada ancha tajriba to'plangan. Masalan, yaponlarning Ikkinchi jahon urushidan keyingi taraqqiyot yo'li davlat tuzumi – monarxiyani saqlab qolgan holda, jamiyatdagi hukmron munosabatlarni zamonaviy talablar asosida isloh etish modeliga misol bo'la oladi.

O'zbekistonning sobiq ma'muriy buyruqbozlik tuzumidan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan erkin, demokratik jamiyatga o'tishining o'ziga xos va mos yo'li – jahonda o'zbek modeli deb tan olingan rivojlanish yo'lidir. Uning asosiy mazmuni jamiyatni inqilobiy tarzda emas, balki bosqichma-bosqich, ya'ni tadrijiy ravishda isloh etishni nazarda tutadi. O'zbek modeli o'zining nazariy va amaliy jihatlariga ega. U nazariya, ya'ni ta'limot sifatida mamlakatimizning salohiyati va keng imkoniyatlaridan, tabiiy boyliklari, aholisining ongi, bilimi va yaratuvchilik mahoratidan kelib chiqqan holda rivojlantirish tamoyillarini belgilab beradi. Oddiy til bilan aytganda, o'zbek modeli nazariy jihatdan bizning o'zimizga xos va o'zimizga mos yo'limizni asoslaydi.

Amaliy faoliyat dasturi sifatida esa bu model islohotlarning huquqiy negizini yaratish va mustahkamlashga qaratilgan aniq siyosatni bugungi sivilizatsiya sharoitida qanday yuritish yo‘l yo‘riqlarini tavsiya etadi. Uning amaliy jihatida boshqaruv, tashkilotchilik ishlari va aniq ijro mexanizmini o‘zida aks ettiradigan va ularning ijrosini ta’minlaydigan farmonlar, qarorlar, davlat dasturlarini qabul qilishni hamda investitsiya, soliq, moliya-kredit, iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni nazarda tutadi. Bozor munosabatlariga o‘tishning besh tamoyili:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi, mafkuradan xoliligi
2. Davlat – bosh islohotchi
3. Qonunning ustuvorligi
4. Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish

Immunitet (lotincha – ozod bo‘lish, qutulish ma’nosidagi immunitas so‘zidan olingan) deganda organizmdagi mo‘tadillikni saqlab, uni turli tashqi ta’sirlardan, infeksiyalardan himoya qilishga qodir bo‘lgan muhofaza tizimi tushuniladi. «Mafkuraviy immunitet» tushunchasini birinchi bor Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va uning mohiyatini quyidagicha tushuntirib bergan: «Ma’lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning immunitetini kuchaytirishimiz zarur. Shunday qilib, mafkuraviy immunitet bugungi kunda hayotiy zarurat bo‘lib, u xalqimizni yot va zararli g‘oyalar xurujidan asrashda, yurtimiz bolalarini sog‘lom va barkamol qilib voyaga yetkazishda, ko‘zlagan oliyjanob maqsadlarimizga erishishda muhim ahamiyatga egadir.

XX asrning oxiri - XXI asr boshlarida dunyoda ana shu jarayonlar bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Ilgari oddiy fuqarolar, hatto mutaxassislar tasavvur etolmagan hodisalar sodir bo‘lishi tufayli dunyoning siyosiy qiyofasi o‘zgarib, barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy sohalarda yangi sifat o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining

texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuvi, binobarin g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashtirishida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib, baynalmillatlashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyilining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashtirishiga olib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov.I.A. Istiqlol va ma'naviyat. -Toshkent: O'zbekiston. 1994 y.
2. Karimov.I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent: O'zbekiston. 1998 y.
3. Karimov.I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. -Toshkent: Sharq. 1998 y.
4. Karimov.I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda.-Toshkent: O'zbekiston. 1999 y.
5. Karimov.I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent: Sharq. 1999 y.
6. Karimov.I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-Toshkent: O'zbekiston. 1999 y.
7. Karimov.I.A. Milliy istiqlool mafkurasi xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir.-Toshkent: O'zbekiston. 2000 y.
8. Karimov I.A Milliy istiqlool mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. -T.: O`zbekiston, 2000-yil.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari - oliy qadriyat. 14-jild. T.- "O'zbekiston" 2006-yil.
10. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma'naviyat, 2008-yil.
11. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O'zbekiston, 2010-yil.
12. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish – yorug' kelajigimizning asosiy omilidir //Prezident I.A.Karimovning o'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma`ruzasi //xalq so'zi, 2013 yil 7 dekabr.

13. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini qurish – yorug' kelajigimizning asosiy omilidir. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.- Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2013-yil.

14. Karimov I.A. 2014 yil yug'ori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. /Mamlakatimizni 2013 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining mazhlisidagi ma'ruza 2014 yil 17 yanvar.-Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2014-yil.

15. Karimov I.A. Tinchlik va aqillik-mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligining asosidir //o'zbekiston ovozi, 2014- yil 10 may.

II. O'quv qo'llanma va darsliklar

1.Z. Hamidov. "Milliy o'zlikni anglashda mafkuraning roli" – Milliy istiqlol mafkurasi va uning ta'lim-tarbiyadagi o'rni. Samarqand, 1995 y, 38- bet.

2.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. -Toshkent 2001 yil.

3.Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T. "O'zbek Akmal Saidov. Milliy g'urur bosh qonunimizning asosidir. "Turkiston". 2005 yil

4.Milliy istiqlol g'oyasi (bakalavriat bosqichi uchun darslik). T. "Akademiya". 2007-yil.

5.Mamashokirov S., Tog'aeV SH. erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy mafkuraviy masalalari. T. "Ma'naviyat". 2007-yil.

III. Internet materiallari

1. [www.ziynet.uz/kutubxona/ Ma'naviyat asoslari Adolit](http://www.ziynet.uz/kutubxona/Ma'naviyat/asoslari/Adolit) ijtimoiy hodisa./
2. www.google.uz / Ensiklopediya filosofskih nauk/
3. [www.kutubxona.uz /referatlar to`plami/inson borlig`i/](http://www.kutubxona.uz/referatlar/to`plami/inson_borlig`i/)
4. http://www.gov.uz/uz/other_institutions/others/18848
5. <http://istiqlol.samdu.uz/uzl/article/84>
6. <http://gov.uz/oila#ilmiy-amaliy8markazi100&>